

**O‘RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARINING: ALISHER NAVOIY,
YUSUF XOS HOJIB VA MIRZO ULUG‘BEKLARNING
ASARLARIDAGI IQTISODIY QARASHLAR**

Suyarov Ashirbek Mustafayevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Menejment kafedrası katta o‘qituvchisi

Chirchiq, O‘zbekiston.

Anotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy tafakkuri, ularning asarlarida iqtisodiy g‘oyalarning ifodalanishi va bu qarashlarning zamonaviy iqtisodiy nazariyalar bilan uyg‘unlik jihatlari ilmiy tahlil etilgan. Maqola tarixiy manbalar tahlili, taqqoslov usuli va kontseptual yondashuv orqali yozilgan bo‘lib, unda o‘rta asrlarda shakllangan iqtisodiy fikrlarning bugungi kun uchun ahamiyati ochib beriladi. Natijalar mutafakkirlarning iqtisodiy qarashlari nafaqat davr talablari, balki universal tamoyillar asosida shakllanganligini ko‘rsatadi.

Kalit sozlar: Mulkchilik munosabatlari, davlat boshqaruvi, iqtisodiy siyosat, adolatli taqsimlash, barqaror taraqqiyot, tashqi savdoni rivojlantirish, tarixiy meros, ilmga asoslangan iqtisodiyot.

**ECONOMIC VIEWS IN THE WORKS OF CENTRAL ASIAN
THINKERS: ALISHER NAVOI, YUSUF KHOS KHOJIB AND MIRZO
ULUGH'BEKS**

Suyarov Ashirbek Mustafayevich

Chirchik State Pedagogical University,

Senior Lecturer, Department of Management

Chirchik, Uzbekistan.

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the economic thinking of Central Asian thinkers, the expression of economic ideas in their works, and aspects of their compatibility with modern economic theories. Using historical source analysis, a comparative method, and a conceptual approach, the article reveals the significance of economic ideas developed in the Middle Ages for modern times. The results demonstrate that the economic views of these thinkers were shaped not only by the demands of the era but also by universal principles.

Key words: Property relations, public administration, economic policy, fair distribution, sustainable development, development of foreign trade, historical heritage, knowledge-based economy.

Kirish . Uygʻonish davri – bu Sharq va Gʻarb tamaddunlari tarixida aql-idrok, ilmiy tafakkur va inson erkinligining uygʻonishi bilan ajralib turadigan betakror bosqichdir. Sharqda, xususan Oʻrta Osiyo hududida Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib va Mirzo Ulugʻbek kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati bilan belgilangan. Aksariyat tadqiqotlarda bu allomalar ilm-fan, falsafa, tibbiyot yoki astronomiyaga qoʻshgan hissasi orqali tanilgan boʻlsa-da, ularning iqtisodiy qarashlari yetarli darajada tahlil qilinmagan yoki ikkinchi darajali mavzu sifatida qaralgan.

Aslida esa, bu mutafakkirlarning asarlarida iqtisodiy hayotning murakkab jihatlari — resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy adolat, mehnat va isteʼmol oʻrtasidagi muvozanat, hamda jamiyatdagi mulkchilik munosabatlari haqida chuqur va zamonaviy nazariyalarga yaqin qarashlar ilgari surilgan. Ayniqsa, ularning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan.

Bugungi kunda iqtisodiy tizimlarning barqarorligini taʼminlash, resurslar bilan samarali ishlash va ijtimoiy tenglikni qoʻllab-quvvatlash masalalari global

darajadagi muhokama mavzusiga aylangan bir paytda, tarixiy merosga, xususan, Uygʻonish davri mutafakkirlarining iqtisodiy qarashlariga qayta nazar tashlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola aynan shu maqsadni koʻzlab, Oʻrta Osiyo allomalari tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy gʻoyalarni tahlil qilish, ularning zamonaviy iqtisodiy paradigmalarga qanday mos kelishini aniqlash hamda bu qarashlarning bugungi kun uchun ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir va mutafakkir, balki oʻz asarlarida jamiyat, adolat, mehnat va moliyaviy munosabatlarga oid chuqur iqtisodiy fikrlarni ham ilgari surgan mutafakkirdir. U XV asrda yashagan boʻlsa-da, uning gʻoyalari bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan. Ayniqsa, ijtimoiy tenglik, halollik, foydali mehnat va adolatli boshqaruv kabi masalalar hozirgi zamonaviy iqtisodiy nazariyalar bilan bevosita bogʻliqdir.

Navoiy asarlarida boylik va mol-dunyo insonni maʼnaviyatdan uzoqlashtirmasligi kerakligi haqida takror va takror eslatib oʻtiladi. Masalan, "Mahbub ul-qulub" asarida u boy kishining vazifasi faqatgina mol yigʻish emas, balki bu boylikni adolatli taqsimlash va xalq manfaati uchun ishlatish ekanini taʼkidlaydi. Bu gʻoya hozirgi zamon iqtisodiyotida "ijtimoiy masʼuliyatli kapitalizm" tushunchasiga yaqin. Bugungi korxonalar ham faqat daromad ortidan quvmasdan, atrof-muhit, ishchilar va jamiyat oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini ham eʼtiborga olishlari zarur.

Shuningdek, Navoiy korrupsiya va adolatsizlikni keskin tanqid qilgan. U hokimlarning adolatsizligi, soliqlarning ogʻirligi va mansabdorlarning xalqdan uzoqlashuvi haqida ochiq yozgan. Masalan, "Saddi Iskandariy" asarida hukmdorning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirish, kambagʻal va zaif qatlamlarni himoya qilish ekanini taʼkidlaydi. Bu fikrlar bugungi davlat boshqaruvida ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy iqtisodiyotda davlatning

vazifasi faqat tartib o'rnatish emas, balki iqtisodiy tenglikni ta'minlash, kambag'allikka qarshi kurashish va fuqarolar farovonligini oshirishdan iboratdir.

Alisher Navoiy mulkchilik huquqini ham tan oladi, lekin u bu huquqni cheksiz va nazoratsiz boylik orttirish vositasi sifatida emas, balki jamiyat foydasiga xizmat qiladigan mexanizm sifatida ko'radi. Bu qarash bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida "barqaror rivojlanish" konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi. Ya'ni, iqtisodiy rivojlanish faqat daromad ko'rsatkichlari bilan emas, balki uning ekologik, ijtimoiy va ma'naviy ta'siri bilan baholanadi.

Mirzo Ulug'bekning eng asosiy iqtisodiy qarashlaridan biri – ilm-fanni iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qildirishdir. U Samarqandda ochgan madrasasida nafaqat diniy ilmlar, balki astronomiya, matematika va geografiya fanlarini o'qitgan. Bu esa, bevosita ilmiy bilimlar orqali ishlab chiqarish, savdo va qishloq xo'jaligi sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvdir. Bugungi zamonaviy iqtisodiyotda bu tamoyil "bilimga asoslangan iqtisodiyot" (knowledge-based economy) deb yuritiladi. Ya'ni, iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik bevosita aholining bilim va innovatsion salohiyatiga bog'liq.

Ulug'bek soliq siyosatida ham adolat prinsiplariga amal qilgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, u aholidan undiriladigan soliqlar miqdorini imkon qadar me'yorida belgilab, kambag'al qatlamni ortiqcha yukdan ozod etishga harakat qilgan. Bu esa, hozirgi zamonaviy "progressiv soliq tizimi"ga yaqin. Zamonaviy davlatlarda ham iqtisodiy tenglikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirish uchun boy qatlamdan ko'proq soliq olish, past daromadli aholiga esa yengillik yaratish kabi mexanizmlar mavjud.

Mirzo Ulug'bek savdo va tashqi iqtisodiy aloqalarga ham katta ahamiyat bergan. U Markaziy Osiyoning asosiy savdo yo'llarida joylashgan shaharlar – Samarqand, Buxoro va boshqa hududlarda bozorlarga erkinlik bergan, savdogarlar harakatini qo'llab-quvvatlagan. Bu esa bugungi kunda "erkin bozor iqtisodiyoti" tamoyiliga mos keladi. Hozirgi global iqtisodiyotda ham tashqi

savdoni rivojlantirish, eksportni ko'paytirish va investitsiyalarni jalb qilish davlatlarning asosiy strategiyalaridan biri sanaladi.

Ulug'bekning ijtimoiy siyosati orqali ham iqtisodiy qarashlarini anglash mumkin. U iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlagan, ilm va hunarga ega insonlarni davlat ishlari va ilmiy markazlarga jalb qilgan. Bugungi kunda bu "inson kapitali" tushunchasi bilan izohlanadi – ya'ni, iqtisodiy o'sish uchun insonlarning bilim, malaka va salohiyati asosiy resurs hisoblanadi.

Shu bilan birga, Mirzo Ulug'bek ilm-fanni iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qildirish orqali uzoq muddatli barqarorlikni maqsad qilgan. U bevosita sanoatga katta sarmoya kiritmagan bo'lsa-da, poydevor sifatida ilmiy taraqqiyot va mehnat unumdorligini ilgari surgan. Bu esa bugungi davrda "innovatsion rivojlanish modeli" sifatida tan olinadi.

Yusuf Xos Hojib — XI asrda yashab, o'zining mashhur "Qutadg'u bilig" asari bilan turkiy adabiyot va ijtimoiy tafakkur tarixida chuqur iz qoldirgan allomadir. Bu asar o'z mohiyatiga ko'ra, davlatni boshqarish, jamiyatni tartibga solish, ijtimoiy adolat va iqtisodiy taraqqiyotga oid siyosiy-falsafiy traktat hisoblanadi. Unda ilgari surilgan iqtisodiy g'oyalar hozirgi zamonaviy iqtisodiy nazariyalar bilan hayratlanarli darajada mushtarak.

U shunday yozadi : «Xizmat ahli o'z mehnati natijasidan umidvor turadi. Umidini topmagan xodim ko'ngli sinadi». «Ammo xizmat qiluvchilarni hammasi ham bir xil emas. Ular turlitum an toifalarga bo'linadi. Xodimlarning naf keltiruvchilari bor, shuningdek, nafi yo'g'i ham ancha. Naf keltiruvchi kishiga xizmatiga loyiq ravishda tortiqlar berish kerak. Xizmatiga loyiq taqdir ko'rgan xodimning boshi ko'kka yetadi. Inson degani, axir, hayvon tengi emas. Ana shuni bilib, unga amal qilinsa, barcha ish ko'ngildagidek bo'ladi.

XULOSA

Bu uch mutafakkir o'z davrida iqtisodiy barqarorlikning asosiy sharti sifatida — adolatli boshqaruv, bilimli rahbar, mehnatga hurmat, halol ishlab chiqarish va ijtimoiy tenglikni ilgari surgan.

Alisher Navoiy iqtisodiy farovonlikni insoniy qadriyatlar, halollik va saxovat bilan bog‘lab, bugungi inklyuziv iqtisodiy o‘sinh va ijtimoiy kapital konsepsiyalariga zamin bo‘lgan g‘oyalarni ilgari surdi. U adolatli jamiyatni iqtisodiy taraqqiyotning poydevori sifatida ko‘radi.

Mirzo Ulug‘bek ilm-fan va ta‘lim orqali iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish g‘oyasini ilgari surib, bugungi bilimga asoslangan iqtisodiyot — “knowledge economy” tushunchasiga asos soluvchi qarashlarni bayon etgan. Uning fikricha, taraqqiyot faqat moddiy omillarga emas, balki aqliy salohiyat va ilmiy tafakkurga tayanishi zarur.

Yusuf Xos Hojib esa iqtisodiy barqarorlikni davlat boshqaruvi, halol mehnat, soliqlarning adolatli yig‘ilishi va moliyaviy intizom orqali ta‘minlash mumkinligini asoslab bergan. Bu qarashlar zamonaviy davlat moliyasi, fiskal siyosat va iqtisodiy islohotlarning negiziga to‘liq mos keladi.

Zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar ushbu tarixiy mutafakkirlar g‘oyalarining chuqur ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Ularning asarlari nafaqat adabiy, balki iqtisodiy tafakkur, siyosiy boshqaruv va barqaror taraqqiyot yo‘lida ham qimmatli nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bugungi iqtisodiy islohotlar jarayonida bu mulohazalar milliy model yaratishda bebaho manba bo‘lib xizmat qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.H.Tashmatov , H.S.Asatullayev, Z.G.Allaberganov- Iqtisodiy ta‘limtar tarixi Toshkent. “Iqtisod-moliya” 2019y. 450b
2. A. Razzoqov, SH. Tashmatov, N. O‘rmonov, P. Xoshimov, F. Egamberdiyev - Iqtisodiy Ta‘limotlar Tarixi (o‘quv qo‘llanma) toshkent – 2005y. 346b
3. A. Razzoqov, SH. Tashmatov, N.o'rmonov – iqtisodiy ta'limotlar tarixi Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T., tdiu, 1992 (1-mavzu).

4. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T., fan, 1997. 446 b.(1,2 -boblar 72-76 betlar).
5. Shodmonov Sh.Sh., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - t.: "iqtisod-moliya" 2017.
6. Suyarov, A. M. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDAGI IQTISODIY G'OYALAR. Экономика и социум, (6-2 (121)), 721-724.
7. Usarov, J. E., Khimmataliev, D. O., Makhmudova, D. M., Abdusalomovna, H. S., & Nizamiddinovich, E. A. (2023). Pedagogical foundations of the student's individual training trajectory. Telematique, 22(01), 1259-1264.